

TURKISTON QO'RBOSHIK HARAKATI VA ULARNING FOJIALI TAQDIRI TARIXI

Do'smurodov Shohzod Farhodovich
SamDU Tarix fakulteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Turkistonda qo'rboshilik harakati va harakat rahnomalari bo'lgan qo'rboshilarning hayotlari o'tgan davr mobaynida, ayniqsa, mustaqillikdan keyin tarixshunosligimizda va tarixchilar jamiyatida keng o'rganildi va ularning faoliyati yosh avlodlarimizga yaqindan tanishtirishga imkon berdi deya ayta olamiz. Xususan, so'ngi vaqtlarda qo'rboshilar harakatini aniq va izchillik asosida o'rganishda Q.Rajabovning Farg'ona vodiysidagi istiqloqlilik harakati: mohiyati va asosiy rivojlanish bosqichlari nomli monografiyasi ushbu yo'lda qilingan asosiy yutuq hisoblaniladi. Ushbu maqolada Turkiston qo'rboshilar hayoti va ularning fojiali taqdiri tarixi manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Turkiston, qo'rboshilik harakati, millat ozodligi, yolg'on tarix, sovet hokimiyati, "xalq dushmani".

Аннотация: Жизнь корбошского движения и лидеров корбошского движения в Туркестане широко изучена в истекший период, особенно после обретения независимости, в нашей историографии и в сообществе историков, и можно сказать, что их деятельность позволила нашей молодому поколению познакомиться с ними. В частности, главным достижением в недавнем исследовании движения боевиков на четкой и последовательной основе считается монография К. Раджабова «Движение за независимость в Ферганской долине: его сущность и основные этапы развития». В данной статье на основе источников анализируется жизнь воинов-туркестанцев и история их трагической судьбы.

Ключевые слова: Туркестан, партизанское движение, национально-освободительное движение, лжеистория, Советская власть, «враг народа».

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov Ahmad Al-Farg'oniylavalludini nishonlash bilan bog'liq tadbirlar yuzasidan Quva va Farg'ona shahriga tashrif buyurib, keng jamoatchilik bilan qilgan suhbatlaridan birida istiqloql bayrog'ini baland ko'targan, milliy ozodlik kurashiga, qurolli harakatga bosh bo'lgan sarkardalardan Madaminbek va Shermuhammadbeklarni eslab o'tgan edilar. Chunki haqqoniy tariximizni, yangi tarixni yaratishda buyuk istiqloqlimiz yo'lida kurashgan ulug' zotlar, ma'rifatparvaru adiblar, qo'mondon-u lashkarboshilarning hayot yo'li, faoliyati, taqdirini bilish, ularning betimsol ijtimoiy-siyosiy qiyofasini tiklash, bor haqiqatni hozirgi va kelajak avlodga yetkazish juda muhim ahamiyat kasb etadi.

«Bo'lib tashla, so'ngra hukmronlik qil» shiorini amalga oshirish uchun eng makkor, qabih usullar ishga solinib, bir millat vakillarini bir-biriga qarshi qayrash, adovat va nizo urug'ini sochish, shu yo'l bilan istiqloqlar safini bo'lib yuborish, ularni alohidaalohida qirg'in qilish siyosati amalga oshirilgan edi. «Shu bois, otabobolarimizga ana shunday ranglar bilan ajratib baho bermasligimiz, balki ularning hayotini, ular yashagan davr mohiyatini to'g'ri tushunishga harakat qilishimiz lozim». Islom Karimov ta'kidlaganidek, «bundan bir yuz o'ttiz yil muqaddam xalqimiz milliy mustaqilligi va tarixiy davlatchiligini yo'qotib, mustamlaka asoratiga tushib qolgan edi. Shu davr mobaynida ajdodlarimiz, millatimiz mashaqqatli sinov va kurash yo'llarini bosib o'tdi. O'zbekistonning sovetlar davri tarixi ana shunday mashaqqatli, og'ir sinov va kurash yo'llaridan iboratdir.

Har bir voqea, hodisa, jarayon, xoh ijobiy, xoh salbiy bo'lsin, xoh adolatli, xoh razolatli bo'lsin, ularning barchasi ustidan vaqt, tarix o'z hukmini chiqaradi. Shuningdek, har bir siyosiy, harbiy, mafkuraviy arbob, omma, xalq yetakchisi darajasiga ko'tarilgan shaxs garchand jisman yo'q bo'lsa ham, baribir ular haqidagi bor haqiqat aytilishi zarur. Bunday shaxslar tarix uchun hamisha barhayotdir. Ulardan yangidan-yangi avlodlar ibrat va bahra oladi, ularga taqlid qiladi, yaxshilari bilan faxrlanadi, yomonlardan nafratlanadi. Qolaversa, tarix shaxssiz bo'lmaydi. Har bir tarixning egasi bo'ladi. Egasiz tarix tarix emas. Shu nuqtai nazardan qaralganda bizning ona tariximizning ko'pdanko'p sahifalari, tarixiy voqealari va ularning qahramonlari hali-hanuz o'rganilganicha yo'q.

Vatanimiz tarixiy ildizlar ko'p ming yillikka borib taqaladi. Bu tarixiy davr mobaynida yashab o'tgan barcha ajdodlarimiz o'z davrida, hayotlik paytidayoq, nomlarini tarix zarvaraqlariga muhrlashga ulgurishgan. Ba'zilari qon bilan, ba'zilari o'z jon i bilan. Shunday shaxslaridan biri Madaminbekdir. Sovet tarixchilari tomonidan bu shaxs o'tgan asrda Bosmachi nomi bilan qoralangan. Xo'sh tarixga yuzlansak Bosmachi atamasi qachon va qay tariqa paydo bo'lgan? 1919-yil o'rtalarigacha Bosmachi degan so'z qo'llanilmagan. Sho'ro idoralarining maxsus yig'ilishlarida harakatni qoralash uchun shu so'z taklif etiladi. Sho'ro axriv manbaalarida bu davrgacha “повстанцы”, “моджахеды” degan so'zlar ishlatiladi. “Bosmachi” iborasini birinchi bo'lib bolshovoy mafkurachilar qo'lladilar. “Жизнь национальности” (Moskva, 1920 yil iyun) jurnalida “Bosmachilik fronti” maqolasi e'lon qilindi. Bu iborani 1921-yili 4-aprelda mazkur maqola muallifi Farg'ona qo'shinlari qo'mondoni D.E.Konovalov ishlatdi. P.Kushnev esa “bosmachi” so'zini qaroqchi ma'nosida qo'lladi.

Tariximizning ana shunday kemptik qirralaridan biri 1918-1934 yillarda Vatan, millat ozodligi, erku hurriyat uchun olib borgan mardonavor qurolli kurash tarixidir. Bu qadar jozibali, salohiyatli, salobatli, katta ko'lamli, favqulodda mazmunli, qudratli, ayni vaqtda ziddiyatli, ammo mislsiz qahramonlik ko'rsatgan, ham talafot ko'rgan,

ko'plab qurbonlar bergan va kurash 16 yil davom etgan milliy-ozodlik kurashidek tarixiy voqea jahon tarixida na XIX asrda, na XX asrda yuz bergan. Bu buyuk milliy kurash betakrordir. Sovet hokimiyati bu harakatni bostirish uchun 260.270 ming askar, zamonaviy qurollar bilan ish olib bordi. Yuz minglab yurtdoshlarimiz jon fido etdi, bir milliondan ziyod vatandoshlar xorijga chiqib ketdi, 1935-1939 yillarda o'n minglab mahalliy aholi bosmachilarga qo'shilganlikda, yordam berganlikda, xayrixoh bo'lganlikda yoki ular haqida ma'lumot bermaganlikda ayblanib, Sibir, Uzoq Sharq, Shimolga surgun qilindi.

Ayrim xorijdagi ma'lumotlarga qaraganda, O'rta Osiyo mintaqasida jami 5 million 600 ming kishi bu yo'lda qurbon bo'lgan. Bu hayot va mamot uchun kurash jarayonida xalq orasidan ko'plab jasur sarkardalar, qo'mondonlar, qo'rboshilarning butun bir avlodi yetishib chiqdi. Shaxobiddin Yassaviyning Turkiston achchiq haqiqatlari kitobida 114 qo'rboshi haqida ma'lumot keltirilgan. Ular orasida Farg'ona vodiysida kichik va katta Ergashlar, Muhammad Aminbek (Madaminbek), Shermuhammadbek, Omon Pahlovon, Jonibek Qozi, Mahkam Xoji, Isroilbek, Ahmad Polvon, Rahmonquli, Islom Pahlavon, Xorazmda Junaidxon, Zarafshon vodiysida Mulla Abdulqahhor, Jo'ra Amin, Murod Meshkob, Mitan Polvon, Sharqiy Buxoroda Ibrohimbek Laqay, Davlatmandbek va boshqalar bor. Bu zotlarning har birini maxsus tadqiq qilish lozim. Sho'rolar davrida ularning barchasiga xalq dushmani degan tamg'a yopishtirilgan, ular haqida biror og'iz ijobiy so'z aytishning mutlaqo imkoni bo'lmagan, aksincha, ular keragicha yomonga chiqarilgan, chin tarix o'rnini yolg'on tarix egallagan edi.

Monografiyaning ahamiyatlilik jihati shundaki, tadqiqotning asosiy manbasi bo'lib arxiv materiallari xizmat qiladi. Bu hujjatlar Farg'ona viloyati arxivi (Farg'ona VDA)- 8, 66,121, 299, 435-fondlar; O'zbekiston Respublikasi Mazkaziyl Davlat Arxivi -17, 25, 31, 36, 39, 344, 945-fondlar; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Apparati arxividagi 25- va 60-fondlar Rossiya Davlat Harbiy Arxivi 110, 149, 265, 278, 28113, 28859-fondlar, shuningdek, O'zbekiston FA Tarix instituti O'rta Osiyoda istilochilik harakati tarixi ni o'rganish ilmiy-tadqiqot jamoasining arxivida saqlanmoqda. Shuningdek olimning Turkiston tarixi nomli o'quv qo'llanmasining IV bobi Turkistonda istilochilik harakatlariga bag'ishlangan bo'lib, unda harakatning vujudga kelish sabablarini alohida tadqiqot sifatida qarash ahamiyatlidir. Shuningdek harakatning Respublikamizning markaziy viloyatlarga, ya'ni Samarqand, Qashqadaryo va Buxoroga tarqalishi batafsil yozib o'tilgan.

Tarixchi olim Dono Ziyoyevaning 2000-yilda nashrdan chiqqan Turkistonda milliy ozodlik harakati kitobi ham ushbu yo'lda qilingan yirik ilmiy ish sifatida qabul qilish mumkin. Tadqiqotda Turkistondagi 1916-yil qo'zg'oloni va 1918-1924-yillardagi sovet hokimiyatiga qarshi kurashlar nafaqat tarixshunoslik, balki manbashunoslik nuqtai nazaridan ham tadqiq etiladi, mazkur muammolar tarixini aks

ettiruvchi manbalar atroflicha tahlil etiladi. Bunda manbashunoslikdagi an'anaviy usulga ko'ra aniq bir manba tahlil bilan cheklanilmaydi, balki mazkur tarixiy voqealar haqida o'sha davr zamondoshlari tarafidan bildirilgan rasmiy va norasmiy qarashlar keng o'rganiladi.

1922-yil avgustda Buxorodagi istiqlolchilik harakatining ikkinchi bosqichi tugadi. Anvar Poshsho o'sha davrdagi murakkab bir tarixiy sharoitda Turkiston askariy ishlari uchun bag'oyat zarur shaxs edi. Ammo uning Buxoroga kelishi faqat sovet ma'murlari va muarrixlari tomonidan emas, balki boshqa g'animlari tomonidan ham noto'g'ri talqin etilib, bu borada juda ko'p tuhmat va yolg'onlar to'qilgandir. U Baljuvondan turib, rafiqasi Najiba begimga yozgan so'nggi maktubida shu to'grida ham to'xtalgan: «Sen bilursanki, manim haqimda tuhmat-tashviqotlar tarqatib yurgan badbaxt kimsalarning iddao etganlaridek, men bu olis diyorlda mol-dunyo axtarib, boy bo'lmoq yoki o'z hokimiyatimni qurmoq uchun kelganim yo'q. Meni sendan uzoqlashtirib bu joylarga keltirgan Janobi haqning zimmamga yuklagani muqaddas bir vazifadir». Uning rafiqasiga yo'llagan mazkur oxirgi xati Anvar Poshsho ma'naviy dunyosi qanchalik butun buyuk shaxs ekanligidan, uning iymoni baquvvatligidan dalolat beruvchi bir hujjat hamdir. Xorijlik tadqiqotchi Glenda Frezerning yozishicha, Buxoroda bolsheviklarga qarshi kurashning harakatlantiruvchi kuchi «liberal jadidlar, konservativ musulmon yetakchilari va tog'lik qabilalar mustaqil dohiylarining mashaqqatli ittifoqi bo'lib, ularni Anvar Poshshoningfusunkor ismi birlashtirgan edi».

G'arblik boshqa bir tadqiqotchi Marta Olkottning ta'kidlashicha, «Anvar Poshshoning ohanraboni eslatuvchi shaxsi va uning da'vati Turkiston xalqi o'rtasida katta akssado uyg'otdi va ular tomonidan qo'llab-quvvatlandi». Anvar Poshsho istiqlolchilarning jangovar kuchini oshirdi. U Sharqiy Buxoroda birlashgan lashkar bunyod etdi va uni turk zobitlari bilan mustahkamladi, g'arbcha qo'mondonlik uslubini joriy qildi. Butun Turkiston hududida sovet rejimi va qizil armiyaga qarshi kurashayotgan vatanparvar kuchlarning harakatlari yagona markazga muvo-fiqlashtirildi. Anvar Poshsho ko'rsatmasi bilan Buxoro, Fargona, Xorazm qo'rboshilarining uchrashuvlari muntazam ravishda o'tkazib turildi va ularga kerakli yo'l-yo'riqlar berildi. Shuning uchun ham turkiyalik tadqiqotchi Ali Bodomchining quyidagi so'zlari o'sha davrning yaxlit manzarasini to'g'ri namoyon qiladi:

«Anvar Poshshoning Buxoroda Turkiston tuprog'iga qadam qo'yishi, Turkistonning har tomonida bo'lganidek, Farg'onada ham qo'rboshilar va xalq orasida qizg'in mehr bilan qarshilandi, istiqlol umidini buyuk maqsad harakatiga aylantirdi». Glenda Frezerning fikricha, «Mujohidlar o'sha paytda millatparvarlik harakatining eng qudratli, ehtimol, eng ommaviy qismini tashkil qila oldilar». Anvar Poshsho bir vaqtning o'zida ham harbiy sarkarda, ham usta siyosatchi, ham mohir diplomat va davlat arbobi bo'lishga intilar edi. Aksariyat hollarda u bunga muvaffaq bo'la

olganligini e'tirof qilishga burchlimiz. Shunday qilib, Anvar Poshsho turkiy xalqlar ozodligi uchun o'z jonini fido qildi va nomi Turkiston tarixida abadiy qoldi.

Ularga mazkur tarixiy jarayonlarni aniqlashtiruvchi muhim manba sifatida qaraladi. Voqealar zamondoshlarining fikr-mulohazalari, ko'rsatmalari o'sha davrdagi matbuotda, arxiv fondlaridagi hujjatlarda saqlanib qolgan bo'lib, tadqi- qotda ular ilk bor iste'molga kiritilgan. Andijon davlat universiteti professori R.Shamsiddinov tomonidan qilingan shu yo'ldagi ilmiy monografiya ham salmoqli ahamiyatga ega bo'lib, asar o'z ichiga Turkistondagi 1917-1924-yillar oralig'ida yuz bergan istilolchilik harakati va unda qo'rboshilarning roli va ularning harakat rivojidadagi o'zni keng o'rinlarda yoritib o'tilgan. Shuningdek, tadqiqotchi tomonidan asar yozilishida o'sha davr arxiv hujjatlarining o'rganilishi asar qimmatligini yanada oshiradi. Bundan tashqari Turkistonda istilochilik harakati va ularning yetakchilari hisoblanmish qo'rboshilar haqida har yili yurtimizdagi jurnal va gazetalarda ilmiy maqolalar, tarixchilarning qarashlari nashr etib boriladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda istiqlolchilik harakatini yagona markazga uyushtirishda qo'rboshilar katta rol o'ynashdi, ularning harakatlari sabab, xalqimiz mustabit sovetlarga qarshi milliy istiqlolchilik harakatlarini amalga oshirishdi. Bu harakatlar mag'lubiyat bilan tugagan bo'lsada, vatanimiz mustaqilika erishish uchun poydevor vazifasini o'tadi. Biz shu zaminda yashar ekanmiz qonimizda bu buyuk mard, jasur bobolarimizning qoni oqar ekan, biz yosh avlodlar shu mard, jasur ajdodlarimizga munosib avlod bo'lishimiz zarur. Ushbu Ilmiy maqolada ajdodlarimizning xurriyat uchun, istiqlol uchun olib borgan kurashlari to'g'risidagi ma'lumotlarni uchratamiz. Bu kurash garchi bosqinchilarning g'alabasi bilan yakunlangan bo'lsada, milliy tariximizning eng shonli sahifalaridan biri bo'lib qolaveradi, chunki bu milliy-ozodlik kurashidir. G'alabalar quvonchi, mag'lubiyatlar o'kinchi bu kurashning doimo hamrohi bo'lib keldi. Mazkur kurash fidoyilik namunasi sifatida moziy sahifasidan o'rin oldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Azamxo'jaev S. Turkiston muxtoriyati: milliy demokratik davlatchilik qurish tajribasi. -T.: Manaviyat. 2000.
2. Azamxo'jaev S. Turkiston muxtoriyati. -T.: Manaviyat, 2000.
3. Абдуллаев Р. Туркестанские прогрессисты и национальное движение // "Звезда Востока". – 1992. – №. С. 106-113.
4. Avtorxonov A. Kremil Saltanati. Toshkent. Cho'lpon. 1993.
5. Akramov A. Bosmachilik harakati va uning mohiyati. Hayot va iqtisod. 1991.
6. Алексеенков П. Крестьянское восстание в Фергане. Средазкнига, 1927. 107 с. Ташкент:
7. Алексеенков П. Кокандская автономия. 72 с. Ташкент: Узгиз, 1931.

8. Алексеенков П. Что такое басмачество. дат, 1931. - 94 с. Ташкент: Узбекгосиз.
9. Alekseenkov P. Vosmachilik nima? - Toshkent.O'zdamnashir.1931.
10. Алиев Х. [Хидиралиев И. / Басмачество и народное хозяйство Ферганы // "Военная мысль и революция". 1923. № 4. С. 43-49.
11. Белое дело. Генерал Корнилов. Кн. I. Москва: Голос, 1993. - 304. Ледяной поход. Кн. 2. Москва: Голос, 1993. — 366
12. "Былое": неизданные номера журнала. Кн. 1. Ленинград: Лениздат, 1991. -175 с.; Кн. 2. Ленинград: Лениздат, 1991. 168 с.
13. Бердяев Н. А. Истоки и смысл русского коммунизма. Москва:Наука, 1990. — 224 с.
14. Березкин В. Босмачиликнинг ижтимоий табиати масаласида // "Қизил Шарқ". 1931. № 2. – Б. 1-19.
15. Behbudiy M. Хақ olunur berilmas. Fan va turmush.1991.
16. Боевой путь войск Туркестанского военного округа. Москва:Воениздат, 1959. 307 с.
17. Bobobekov X., Rahimov J., Sodiqov H. O'zbekiston tarixi. -Т.: 1994.
18. Boymirza Hayit.Turkistonda milliy kurash tarixining asosiy manbalari. "Erk".1990.
19. Qosimov Y. Namangan tarixidan lavhalar. – Т., 1990.
20. Rajabov Q.K. Mustaqil Turkiston fikri uchun mujodalar. –Т.: О'zbekiston. 2000.
21. Rajabov Q.K. Haydarov M. Turkiston tarixi. –Т.: Universitet, 2002.
22. Rajabov Q.K. Buxoroga qizil armiya hujumiva unga qarshi kurash.Tarix haqiqati.(1920-1924). – Toshkent.2002.